



THE FORMATION OF MILITARY CULTURE AND ITS SIGNIFICANCE

Tursunboy Ergashev

independent researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ergashevbahodir44@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Military culture, patriotism, discipline, moral norms, responsibility.

Received: 17.05.25

Accepted: 19.05.25

Published: 21.05.25

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the concept of military culture and its contents. Military culture encompasses a set of behavioral norms shaped by the moral character, discipline, sense of responsibility, and patriotic spirit of military personnel. The article particularly explores its intrinsic connection with core values such as patriotism, discipline, and responsibility, which form the fundamental components of this culture. It also highlights the significance of military culture in youth education under modern conditions, emphasizing its role in fostering loyalty to the homeland and its people. The article serves as a crucial theoretical foundation for instilling feelings of respect and dedication to military duty in the hearts of the younger generation.

HARBIY MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA UNING AHAMIYATI

Tursunboy Ergashev

mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ergashevbahodir44@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Harbiy madaniyat, vatanparvarlik, intizom, axloqiy normalar, ma'suliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy madaniyat tushunchasi va uning mazmuni chuqur tahlil etiladi. Harbiy madaniyat – bu harbiy xizmatchilarning axloqiy qiyofasi, intizomi, mas'uliyat hissi, vatanparvarlik ruhida shakllangan yurish-turish me'yorlari

majmuasidir. Maqolada ayniqsa ushbu madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan vatanparvarlik, intizom va mas’uliyat kabi qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi oolib beriladi. Shuningdek, hozirgi zamon sharoitida harbiy madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, ularni ona yurti va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi o‘rni yoritiladi. Maqola yosh avlod qalbida harbiy burchga hurmat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ФОРМИРОВАНИЕ ВОИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ

Турсунбой Эргачев

независимый исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: ergachevbahodir44@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Военная культура, патриотизм, дисциплина, нравственные нормы, ответственность.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется понятие военной культуры и ее содержание. Военная культура представляет собой комплекс норм поведения военнослужащих, сформированных в духе нравственного облика, дисциплины, чувства ответственности и патриотизма. В статье особое внимание уделяется раскрытию неразрывной связи военной культуры с такими ценностями, как патриотизм, дисциплина и ответственность, которые являются ее основными составляющими. Также освещается значение военной культуры в воспитании молодежи в современных условиях, ее роль в формировании преданности Родине и народу. Статья служит важной теоретической основой для развития чувства уважения и преданности воинскому долгу в сердцах молодого поколения.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimiz keng ko‘lamda rivojlanib, mustahkamlanib, bormoqda. Bu jarayonda, yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va etnik guruh vakillarining ma’naviy axloqiy va madaniy yuksalishining jadallahuviga xizmat qiladigan qadriyatlarni qaror toptirish va uzluksiz takomillashtirib borish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi, vatanparvarlik va milliy

g‘urur, fuqaro burchi va shaxs mas’uliyati bilan bog‘liq muammolarni ilmiy-siyosiy jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Bilamizki, O‘zbekiston jamiyatni madaniyati juda murakkab va ko‘p qirrali tizimli ijtimoiy tuzilma bo‘lib, o‘z ichiga turli xil tarkibiy qismlarni - submadaniyatlarni, ya’ni uning turli subyektlari, madaniyatlarini qamrab oladi. Shunday submadaniyatlardan biri harbiy madaniyat hisoblanib, u jamiyat madaniyatining nisbatan mustaqil kichik tizimi sanaladi.

Har qanday davlatning mustahkamligi va barqarorligi uning mudofaa tizimiga, qurolli kuchlarining kuchi va salohiyatiga bog‘liq. Harbiy soha – bu faqat qurol tutib yurish emas, balki o‘ziga xos qadriyatlар, an'analar va axloqiy me'yorlarga ega bo‘lgan madaniyatdir. Bu madaniyat “harbiy madaniyat” deb ataladi. Harbiy madaniyat – harbiylar ongida shakllanadigan, ularning kundalik faoliyatida, xizmatida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan g‘oyaviy, axloqiy, estetik va mehnat madaniyatining yig‘indisidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustda qabul qilingan PQ-3898-soni “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariharbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdab takomillashtirish to‘g‘risida” konsepsiysi qabul qilindi. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarining ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarini tayyorlash maqsadida quyidagilar: harbiy xizmatchilarining ma’naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlар va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan yagona tizimni tuzish; harbiy xizmatchilarining ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas’uliyat tuyg‘usini chuqr singdirish; dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezzulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlарimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash asosiy vazifalari etib belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Bugungi kunda O‘zbekistonda harbiy madaniyatni rivojlantirish, harbiy tadqiqotlar va ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Harbiy akademiyasining o‘qitish dasturlari, harbiy ixtisoslashgan ilmiy журнallar va o‘quv-uslubiy materiallar bu borada katta ahamiyat kasb etadi. **A. Xamidov, M.G‘ulomov, B.Qodirov, B.Shamsutdinov, va B.Xudaybergenovlarning tadqiqotlarida harbiy madaniyat tushunchasi, uni**

shakllantirish omillari, harbiylar orasida mas’uliyat, tashabbuskorlik hamda fidoiylik fazilatlari yuksaltrirish, Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlik tarkib topishi haqida fikrlar o’rganilgan. **A. Xamidovning** “Harbiy madaniyat asoslari” nomli kitobida harbiy madaniyat tushunchasining nazariy asoslari, uning tarixiy ildizlari, harbiy xizmatda intizom va axloqiy qadriyatlarning roli bat afsil yoritilgan. Muallif harbiy madaniyatni nafaqat harbiy texnika va nizom doirasida, balki sotsiologik va psixologik omillar bilan bog’liq holda ko‘rib chiqadi. Kitobda vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik, subordinatsiya, buyruq madaniyati, ramzlar va marosimlarning ahamiyati keng tahlil qilinadi. **B.Qodirov** o‘z tadqiqotida harbiy xizmatchilarning ruhiy holati, ularning madaniy va axloqiy tarbiyasini harbiy psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Harbiy madaniyatni inson psixologiyasi bilan uyg‘unlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Bugungi kunda harbiy madaniyat sohasida tadqiqotchilar tomonidan o’rganilmoqda. Harbiy madaniyatni o’rganishning nazariy asoslarini aniqlash turli ilmiy yangiliklar, sohalarni o’rganishni talab qiladi. Bu ilmiy metodlar quyidagilar:

1. Tahlil va sintez – harbiy madaniyatning asosiy tushunchalari va elementlarini tahlil qilish
2. Tarixiy yondashuv – harbiy madaniyatning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o’rganish
3. Komparativ (taqqoslovchi) metod – boshqa madaniy sohalar bilan harbiy madaniyatni solishtirish
4. Modellashtirish – harbiy madaniyat strukturasi va shakllanish omillarini modellashtirish.

Tahlil va natijalar: “Harbiy madaniyat — bu harbiy xizmatga xos bo‘lgan ruhiy-axloqiy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unlashgan ifodasidir.”

Bu tushuncha — harbiy xodimlarning kasbiy faoliyati, ijtimoiy xulq-atvori, yurish-turishi, kiyinish madaniyati, axloqiy qadriyatlari, vatanparvarlik tuyg‘ulari va xizmatga sadoqat kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. U jamiyatda harbiy xizmatga bo‘lgan hurmatni oshiradi, yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydi.

Harbiy madaniyat avvalo jamiyatning umumiy tarixiy rivojlanishi, harbiy an'analar, qadriyatlар va urf-odatlar asosida shakllanadi. Har bir xalq o‘zining milliy armiyasi va jangovar tajribasi orqali alohida harbiy madaniyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqi tarixida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalar orqali shakllangan harbiy san’at va intizomiy tizim bugungi kunda ham harbiy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy madaniyatning shakllanishining asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi: **Intizom** – harbiy sohaning asosiy ustunidir. Harbiy xodimlar buyruqlarni so‘zsiz bajarishga, yuqori tartib-intizomga amal qilishga o’rgatiladi. **Vatanparvarlik** – harbiy madaniyatda yurtga sadoqat, uni himoya qilish

oliy qadriyat hisoblanadi. **An'analar va ramzlar** – harbiy libos, bayroq, harbiy marosimlar, salomlashish tartibi kabi elementlar bu madaniyatning ajralmas qismidir. **Jamoaviylik** – harbiy xizmatda har bir inson umumiyligi maqsad yo‘lida jamoa bilan harakat qiladi, yakka tartibdagi qarorlar emas, balki bирgalikdagi harakatlar muhim hisoblanadi. **Ruhiy va jismoniy tayyorlarlik** – harbiylar nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham mustahkam bo‘lishi kerak. Bu madaniyat ularni stressga bardoshli, fidoyi va sabotli etib shakllantiradi. **Axloqiy normalar** – halollik, jasorat, sadoqat, mas’uliyat kabi fazilatlar harbiy madaniyat asosida tarbiyalanadi.

Harbiy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan intizom, madaniyatiga va qonun kuchiga ega bo‘lgan Umumharbiy nizomlar talablarini bilish va ularga qat’iy rioya qilish, jangovar mahoratni oshirib borish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni sayqallashtirish, harbiy intizom va nizomiy tartibni mustahkamlash, shaxsiy jangovar shaylik va qism, bo‘linmalar jangovar shayligini muntazam oshirib borish – har bir harbiy xizmatchining majburiyati va muqaddas burchi hisoblanadi. Burchning a’lo darajada bajarilishi ularning harbiy madaniyatini yuksaltirishiga asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy intizom, nafaqat jangovar shaylik vazifalarini hal qilishda, balki butun harbiy xizmatda o‘ta muhimdir. E’tirof etish kerakki, davlatning armiya singari murakkab va mas’uliyatli bo‘g‘inida bajaruvchanlik va bo‘ysunish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularsiz harbiy intizom bo‘lmaydi. Bajaruvchanlik barcha holatlarda ham aniq va o‘z vaqtida, bo‘ysunish esa – ongli ravishda va so‘zsiz bo‘lmog‘i lozim. Buni hayotning o‘zi, xususan mintaqamiz va jahondagi murakkab harbiy- siyosiy vaziyat talab qiladi. Shuning uchun ham har bir jangchi harbiy intizomning mustahkamligi nimaga bog‘liqligi va uni zamon talablari darajasida saqlab turish uchun nimalar qilish zarurligini puxta anglab olishi kerak. Bu esa quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Harbiy xizmatchi, qism, bo‘linma shaxsiy tarkibining va har o‘quv-jangovar vazifalarni bajarishdagi muvaffaqiyatlari poydevori intizom ekanligini yaxshi bilib olishi kerak.
2. Askariy huquqiy tartibot, Qurolli Kuchlar hamda harbiy jamoalarda umumiyligi va harbiy qonunchilik me‘yorlari asosida vujudga kelayotgan munosabatlar tizimi. Harbiy xizmatni harbiy nizomlar talablariga qat’iy mos ravishda tashkil qilish – askariy huquqiy tartibotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.
3. Harbiy xizmatchining qonunlar va harbiy nizomlar bilan belgilangan tartib va qoidalarni yaxshi bilishi, nizomiy me‘yorlariga rioya qilishi lozim. Bu har bir jangchi uchun nafaqat puxta bilim, shuningdek, e’tiqod, uning ichki ehtiyojiga aylanishi kerak.
4. Harbiy jamoadagi sog‘lom ma‘naviy muhit, mustahkam askariy o‘rtoqlik, shuningdek, jangchining harakatlari va xulq- atvoriga butun harbiy jamoaning talabchan munosabati, uning

har bir jangchidan nizomiy tartib va barcha uchun barobar belgilangan intizom me‘ yorlariga qat’iy rioya qilish talabi bilan erishiladi. Qonun, nizomlar talablari –barcha uchun majburiy.

5. Jangchining ijtimoiy -siyosiy ongini oshirish, uning ijtimoiy -siyosiy bilimlarini takomillashtirish hamda uning dunyoqarashini milliy mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi asosida shakllantirish, harbiy intizomni mustahkamlash ishining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Aynan ana shunday jangchi o‘z Vatani, xalqi va Prezidentiga cheksiz sodiq va har qanday eng murakkab jangovar vaziyatlarda ham qo‘yilgan jangovar vazifani bajarishga qodir bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy madaniyat – bu faqatgina harbiy kiyim va qurol emas, balki yuksak axloq, kuchli iroda, mustahkam intizom va fidoyilik madaniyatidir. U har bir harbiy xodimning yuragida, xatti-harakatida va xizmatida aks etadi. Harbiy madaniyatning rivoji – bu milliy xavfsizlik va yurt tinchligining kafolatidir. Harbiy madaniyatining rivojlantirishning ahamiyati qurolli kuchlar samaradorligini oshiradi, harbiy xodimlar o‘rtasida birlik va o‘zaro hurmatni shakllantiradi, harbiy xizmatga bo‘lgan ishonch va hurmatni kuchaytiradi hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun har bir fuqaro, ayniqsa yosh avlod, harbiy madaniyatga hurmat bilan qarashi, undan ibrat olishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <http://lex.uz//docs/-3854496> O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida.
2. G.I.Hashimova. O‘zbekiston Qurolli kuchlari harbiy madaniyati va harbiy ijtimoiy ishning rivojlantirish - milliy armiyamiz yuksalishining omili sifatida. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va Ilmiy tadqiqotlar jurnali - 22-SON
3. Xamidov, A. *Harbiy madaniyat asoslari*. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 2018
4. Qodirov, B. *Harbiy psixologiya va madaniyat*. Toshkent: Ilm ziyo. 2019
5. X. Jurayev. Harbiy madaniyatning tarkibiy qismlari va o‘ziga xos xususiyatlari. International Scientific and Practical Conference: Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi. April 20, 2024